



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 19 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	



DOŠKOL'NOE PRE-SCHOOL MAKTABGACHA ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI

Tursunova Ozoda Abdullayevna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya: Maqolada ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida suitsidal xulq-atvorni kamaytirishda qo'llanilayotgan psixokorreksiya dasturlarining samaradorligi va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan. Psixokorreksiyaning psixologik va ijtimoiy jihatlari, shuningdek, dasturlarni xodimlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashdagi roli ko'rib chiqilgan. Maqola suitsidal xatti-harakatlarni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar va ularning amaliy natijalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: psixokorreksiya, suitsidal xulq-atvor, ichki ishlar organlari, samaradorlik, ijtimoiy ahamiyat, ruhiy salomatlik.

Abstract: The article analyzes the effectiveness and social significance of psychocorrection programs aimed at reducing suicidal behavior among law enforcement officers. Psychological and social aspects of psychocorrection, as well as the role of these programs in strengthening the mental health of personnel, are discussed. The study focuses on modern approaches to decreasing suicidal actions and their practical outcomes.

Key words: psychocorrection, suicidal behavior, law enforcement agencies, effectiveness, social significance, mental health.

Аннотация: В статье проанализирована эффективность и социальная значимость психокоррекционных программ, направленных на снижение суицидального поведения среди сотрудников органов внутренних дел. Рассмотрены психологические и социальные аспекты психокоррекции, а также роль программ в укреплении психического здоровья сотрудников. Работа посвящена современным подходам к уменьшению суицидальных действий и их практическим результатам.

Ключевые слова: психокоррекция, суицидальное поведение, органы внутренних дел, эффективность, социальная значимость, психическое здоровье.

KIRISH

Jamiyat barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlari xodimlarining ruhiy sog'lig'i muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda mamlakatimiz rahbari tomonidan ta'kidlanganidek, yoshlar va ijtimoiy faol qatlamlar orasida ruhiy salomatlikni mustahkamlash, jumladan suitsidal tendensiyalarni oldini olish borasida samarali chora-tadbirlarni joriy etish mamlakatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Prezident Shavkat Mirziyoevning ma'naviy-axloqiy qiymatlar va inson hayoti qadrini himoya qilishga qaratilgan nutqlari hamda mamlakatda ruhiy salomatlikka oid masalalarni kompleks hal etishga bag'ishlangan dasturlari, ichki ishlar organlari xodimlarining ruhiy sog'lig'ini saqlash va suitsidal xulq-atvorning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Psixokorreksiya dasturlari — xodimlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash va stressga chidamlilikni oshirishga qaratilgan zamonaviy ilmiy usullardan biri bo'lib, suitsidal xulq-atvorni kamaytirishda samarali vosita sifatida tan olinmoqda. Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida suitsidal xatti-harakatlarning oldini olishda psixokorreksiya dasturlarining samaradorligi va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Ichki ishlar organ xodimlari suitsidal xulq-atvorini prevensiyasi uchun psixokorreksiya dasturini shakllantirish bo'yicha olib borilgan izlanishlarning mohiyatida shaxsning psixologik o'sishi va xulq-atvor xususiyatlarini psixokorreksiyalashga mo'ljallangan asosiy yo'nalishi uchun empirik tadqiqotlarda kuzatilgan shaxs xususiyatlarini asosiy psixik alomalarin inobatga olishni lozim topdik.



Ichki ishlar organ xodimlari suitsidal xulqining prevensiyasi doirasidagi psixokorreksiya dasturini shakllantirishda birinchi navbatda mazkur muammoning jamiyatda hal etilish dolzarbligini belgilovchi asosiy me'yoriy hujjatlarning mavjudlik holatiga e'tibor qaratildi. Bu jamiyat tomonida ichki ishlar organ xodimlari suitsidal xulqi prevensiyasiga imkon beruvchi me'yoriy hujjatlarni inobatga olindi. Unga ko'ra ichki ishlar organlari xodimlari suitsidal xulqi prevensiyasini tashkil etishning xususiyatlarini belgilovchi quyidagi me'yoriy hujjatlar mavjudligi inobatga olindi. Bu hujjatlar tadqiqot doirasida tayyorlangan maxsus psixologik profilaktika va korreksiya dasturida bayon etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'z joniga qasd qilish inson salomatligi uchun jiddiy muammo. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har uch soniyada bitta o'z joniga qasd qilishga urinish bo'ladi va taxminan har daqiqada o'z joniga qasd qilish sodir bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, harbiy mojarolarga qaraganda o'z joniga qasd qilish orqali ko'proq odamlar o'lmoqda. Shu sababli, dunyoning barcha mamlakatlarida o'z joniga qasd qilishni kamaytirish muammosi sog'liqni saqlash tashkilotlarining muhim vazifasidir.

Tarixda birinchi marotaba 2013 yil may oyida Jahon sog'liqni saqlashning 66 assambleyasida Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining (BSST) ruhiy salomatlik bo'yicha harakatlar rejasi tasdiqlandi. Ushbu rejada o'z joniga qasd qilishning profilaktikasi ham ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra 2020 yilga qadar dunyo mamlakatlarida o'z joniga qasd qilish sonini 10 foizga kamaytirish maqsadi qo'yildi.¹

Jahonning 28 ta mamlakatida o'z joniga qasd qilishning oldini olish bo'yicha milliy strategiyalar mavjud bo'lib, hozirgi kunda har yili 10 sentyabrda "Xalqaro o'z joniga qasd qilishning oldini olish" kuni nishonlanadi².

Hozirda Rossiya Ichki ishlar vazirligida psixologik xizmat tashkil etilgan va faol rivojlanmoqda, uning tarkibiga Ichki ishlar vazirligi, Ichki ishlar bosh boshqarmasi, Ichki ishlar boshqarmasi va oliy o'quv muassasalarida 2600 dan ortiq psixologlar o'quv-psixologik diagnostika markazlari, bo'limlari (bo'limlari, laboratoriyalari, guruhlari) mavjud.

Ichki ishlar organlari psixologlari hal qiladigan eng muhim muammolardan biri bu xodimlar o'rtasida o'z joniga qasd qilishning oldini olish bo'yicha samarali psixologik ishlarni tashkil etish, bu IIO faoliyatini psixologik qo'llab-quvvatlashning ushbu muhim qismi uchun kontseptual va uslubiy apparatni ishlab chiqishni talab qiladi.³

Ichki ishlar organlari xodimlarining mamlakatda huquq-tartibot va qonunchilikni, harbiy xizmatchilarning (mutaxassislar) davlat suvereniteti va hududiy muhofazasini ta'minlash borasidagi kasbiy faoliyatlari doimiy ravishda xavf-xatarga to'qnash kelish, zo'riqish va stressogenlik, jismoniy va ruhiy tanglik bilan tavsiflanadi. Xodimlar kasbiy faoliyatining ajralmas qismi bo'lgan favquloddagi vaziyatlar hayot xavfsizligi, jismoniy va psixik salomatlik uchun ekstremal shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi.

Ko'pgina xodimlar uchun berilgan vazifalarni ekstremal sharoitda bajarishlari shaxsning salbiy o'zgarishiga, ularning sog'lig'iga, ish va oilaviy munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi, favqulodda vaziyatlarning (o'z joniga qasd qilish) xavfini oshirishiga olib keladi.

So'nggi yillarda o'z joniga qasd qilishning oldini olish bo'yicha mavjud natijalarni qoniqarli deb bo'lmaydi. Xizmat bilan ijobiy tavsiflangan etuk, professional tayyorgarlikdan o'tgan xodimlarning asossiz yo'qotishlari davom etmoqda. Shu bilan birga, xodimning o'z joniga qasd qilishning har bir holati shaxsiy tarkibning ma'naviy va psixologik holatiga salbiy ta'sir qiladi va huquqni muhofaza qilish organlarining aholi oldida obro'siga putur etkazadi. Bu esa ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'z joniga qasd qilishning oldini olishda ustuvor vazifa ekanligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi vaqtda Ichki ishlar vazirligida psixologik xizmat tashkil etilgan va faol rivojlanmoqda, uning tarkibiga IIV, IIBB, IIB psixologik markazlarida "Xavf guruhi" ga kirgan xodimlar bilan psixokorreksiya va psixoprofilaktika tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda.

Suitsidal xulq-atvor ikkita asosiy, ya'ni tashqi va ichki shakllarda ifodalanadi. Ichki shakllarga suitsidal o'y-fikrlar (tasavvurlar, kechinmalar, tashvishlanishlar); suitsidal tendensiyalar (niyat, o'ylangan reja) tegishli bo'ladi. Tashqi shakllarsuitsidal suiqaiddan (urinish) iborat bo'ladi. "Suitsidal xavf" ushbu mavzudagi tushunchalardan yana biri bo'lib, u o'z joniga qasd qilishni sodir etishga potensial tayyorlik sifatida namoyon bo'ladi va shaxsning suitsidal va antisuitsidal omillarining nisbati sifatida baholanishi mumkin.

1 Предотвращение самоубийств. глобальный императив. Всемирная организация здравоохранения европейское региональное бюро. 2014 г.С.7. Эл. адрес: contact@euro.who.int. Веб-сайт: www.euro.who.int.

2 Предотвращение самоубийств. Глобальный императив. Всемирная организация здравоохранения европейское региональное бюро. 2014 г.С.8. Эл. адрес: contact@euro.who.int. Веб-сайт: www.euro.who.int.

3 Касперович Ю.Г. Психологическое обеспечение профилактики суицидов среди сотрудников органов внутренних дел. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук. Москва -2004. С5

Mutaxassis-xodimlar orasida suitsidal xulq-atvor profilaktikasi muammosini amaliy jihatdan hal etilishi faqatgina suitsident shaxsi, muloqotning rasmiy va norasmiy sohalaridagi mikroijtimoiy iqlimning o'ziga xosligini, xuddi shunday kasbiy, moddiy va maishiy turmush statusini bilishni ta'minlovchi kompleks yondashuv asosidagina amalga oshirilishi mumkin.

Bu ish har bir xodimning individual o'ziga xosligini, kayfiyatini, ijro intizomini, oilaviy turmush tarzini o'rganishni talab etadi. Profilaktik ishlarni asosida chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan umumiy va maxsus reja kompleks olib borish maqsadga muvofiqdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Huquqni muhofaza qilish organlari sifatli ishlashlari uchun jamiyatda ijobiy qayta o'zgartirishlarini amalga oshirishga qodir, mustaqillik, ijtimoiy etuklik va mas'uliyat hamda umumbashariy ahloqiy-ma'naviy qadriyatlarga ega kompetentli va raqobatbardosh mahoratli mutaxassislariga ehtiyoj oshib bomoqda. Shuning uchun ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini oshirishning yangi usul va metodlarini izlash zaruriyati shubhasiz. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RBQ-407-son Qonunida⁴, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning ma'suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5005-son Farmonida⁵, 2017 yil 16 avgustdagi "Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 3216-sonli PQ⁶ va 2017 yil 12 apreldagi "Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2883-sonli Qarorida⁷, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmon hamda 2023 yil 20 yanvardagi PQ-10-sonli⁸ "Ichki ishlar organlari xalqchil professional tuzulmaga aylantirish va aholi bilan yanada hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"gi Qarorida belgilangan qator vazifalarni amalga oshirishda ham mazkur dastur ishi uchun xizmat qiladi.

Dasturni shakllantirishning muhim jihati uning mazmuni tuzilmasidan iborat. Dasturning mazmunini shakllantirishda quyidagi yo'nalishdagi chora-tadbirlar aks etishi kerakligi inobatga olinadi:

Xizmat jarayonidagi suitsidal hodisalarning oldini olish borasida olib boriladigan ishlar favquloddagi hodisalar va mutaxassis-xodimlar travmatizmining (shikastlanishi) profilaktik choralari umumiy tizimida o'tkaziladi.

Ko'rib chiqilayotgan muammoning qiyinchiligi, ayniqsa, uning profilaktik yo'nalganligi suitsidal ifodalanishlarning o'ziga xosligi mavjud emasligi bilan izohlanadi. Mutaxassislar fikriga qaraganda, o'zining individual sifatlariga ko'ra, albatta, o'z joniga qasd qilishi kerak bo'lgan inson yo'q va insonni muqarrar suitsidga olib keluvchi vaziyat va xuddi shunday psixopatologik buzilishlar ham yo'q.

Mutaxassis-xodimlar orasida suitsidal xulq-atvor profilaktikasi muammosini amaliy jihatdan hal etilishi faqatgina suitsident shaxsi, muloqotning rasmiy va norasmiy sohalaridagi mikroijtimoiy iqlimning o'ziga xosligini, xuddi shunday kasbiy, moddiy va maishiy turmush statusini bilishni ta'minlovchi kompleks yondashuv asosidagina amalga oshirilishi mumkin.

Bu ish har bir xodimning individual o'ziga xosligini, kayfiyatini, ijro intizomini, oilaviy turmush tarzini o'rganishni talab etadi.

Profilaktik ishlarni asosida chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan umumiy va maxsus reja kompleks olib borish maqsadga muvofiqdir.

Bunday ishning tarkibiy qismlari bo'lib:

1. Shaxsiy tarkibning barcha kategoriyalarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoyalanganligini ta'minlash.
2. Xodimlarning kundalik xizmatlari, maishiy turmushlari va bo'sh vaqtlarini aniq tashkil etish.
3. Psixogrammalarni yaratish yo'li orqali nomzodlarni kasbiy tanlashning shakl va metodlarini mukammallashtirish, nomzodlarning yashash tarzi, ularni o'rab turgan muhit va aloqalarini operativ tekshiruvdan o'tkazish.

4 Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги "Ички ишлар органлари тўғрисида"ги ЎРҚ-407-сон Қонуни

5 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги "Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning ma'suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari tўғrисида" gi ПФ-5005-сон Фармони

6 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги Ички ишлар органлари ходимларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tўғrисида" 3216-сонли Қарори

7 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрелдаги "Ички ишлар органлари фаолиятини takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar tўғrисида"ги ПҚ-2883-сонли Қарори

8 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги "Ички ишлар органлари халқчил профессионал тuzулмага aylantirish va aholi bilan yanada hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bуйича қўшимча chora-tadbirlar tўғrиси"ги ПҚ-10-сонли Қарори



4. Xizmat jamoalaridagi ijtimoiy-psixologik muhitni va xodimlarning axloqiy-psixologik holatlarini yaxshilash (xizmat jamoasini ijtimoiy-psixologik o'rganish, ular jipslashtirish va hamkorlik muhitini shakllantirish; nizoli vaziyatlarni hal etish, profilaktikasi va oldini olishni amalga oshirish, ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya holati yuzaga kelishiga asos bo'lib, destruktiv xulq- atvorni rivojlanishiga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish).

5. Psixogigiena va psixoprofilaktika chora-tadbirlarini tashkil etish:

- ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiya yoki suitsiddan oldingi davr holatida bo'lgan xodimlar orasida nerv-psixik beqarorlik, destruktiv tendensiya va xatti-harakatlari mavjud bo'lgan shaxslarni aniqlash;
- xodimlarni psixologik salomatligi va tabiatining o'ziga xosligini inobatga olgan holda ulardan foydalanish borasida tavsiyalar ishlab chiqish;
- jismoniy va psixologik yuklamalarni rejali taqsimlash;
- shaxsiy tarkib ortiqcha emotsional zo'riqishining oldini olish;
- xodimlarning shaxs sifatida rivojlanish xohishlarini rag'batlantirish va har qanday yordam berish, malakasini oshirish va turli xil stressli vaziyatlarga turg'unlikni, chidamlilikni shakllantirish;
- xizmat faoliyatining adekvat motivatsiyalarini shakllantirish;
- kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish;
- xodimlarga stress holatlaridan mustaqil chiqa olish texnika va usullarini o'rgatish;
- xodimlarga hayotiy strategiyalarni anglashda yordam ko'rsatish;
- asab-psixik buzilishlar yoki asab-psixik beqarorliklar, xarakter aksentuatsiyalari (yorqin ifodalangan og'ishlar), xulq- atvorlarida muammolari bo'lgan shaxslarni erta aniqlashni ko'zda tutadi.

Suitsidal hodisalarning maxsus profilaktikasi:

- 1) suitsidal xavf yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash (kuzatish va suhbat yo'li bilan);
- 2) xodimlarning suitsidal faolliklarini bashorat qilish (suhbat jarayonida);
- 3) psixologik inqiroz holatida bo'lgan xodimlarga o'z vaqtida adekvat yordam ko'rsatish (profilaktik suhbat, psixolog yoki shifokorlarni jalb etish).

Profilaktik ta'sirlarning samaradorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar:

1. Barcha aytilgan fikr va tahdidlarga jiddiy munosabatda bo'lish.
2. Mutaxassis-xodimga o'z o'y-fikrlarini aytishga imkon berish.
3. Sodir bo'layotgan holatlarning sabablarini aniqlash.
4. "Nima bo'ldi?" deb - "to'g'ridan-to'g'ri" so'ramang. "Mening sezishimcha, Sizni nimadir tashvishlantirmoqda, menga bu haqiqatdan ham baribir emas. Sizdan so'rasam maylimi: nimadir bo'lyaptimi?"
5. Xodimga Siz uchun baribir emasligini tushuntirish.
6. Samimiylilik va tushunish hissi bilan tinglash.
7. Emotsional taranglikni kamaytirishga harakat qilish.
8. Xodimni qiyin vaziyatlarni engib o'tishga safarbar etish.
9. Xodimni ushbu inqiroz mobaynida bo'lishi mumkin bo'lgan yangi psixologik jarohatlovchi hodisalar va ularga adekvat ta'sir ko'rsata olishga tayyorlash.
10. O'z joniga qasd qilish - bu barcha muammolarning eng samarasiz echimi ekanligi nuqtai nazarida qat'iy turish.

11. "O'z joniga qasd qilmaslik haqida kelishuvni" tuzish.

12. Suitsidal xulq-atvorli xodimning o'z-o'zini baholashini, shaxsiy qadr-qimmatini ko'tarish zarur.

13. Inqirozdan chiqish uchun zarur bo'lgan faoliyatni hamkorlikda rejalashtirish.

14. Xodimni o'z yaqinlari, do'stlari, jamoa a'zolari bilan aloqalarini saqlab qolganligini rag'batlantirish.

Psixokorreksiya dasturining samaradorligi mashg'ulot maqsadi va natijalarga erishganlikni belgilovchi mezonlar inobatga olindi.

Psixokorreksiya dasturidagi har bir mashg'ulotda ishtirokchilarning muammolarini hal etish va o'zlaridagi suitsid sodir qilishga moyillikni bartaraf etish va o'zini tartibga solishi hamda me'yordagi faoliyatini amalga oshirish ko'nikmalariga erishishiga mo'ljallangan. Buning uchun mashg'ulot tuzilmasi quyidagi mezonlar asosida shakllantirilgan:

mashg'ulotlarda trening ishtirokchilariga mashg'ulotda ishtirok etishi bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqilgan;

mashg'ulot mashqlari (har bir ishtirokchining faolligini ta'minlashga asoslangan);

mashg'ulot mashqlaridan keyin uning ishtirokchilar tomonidan o'zlashtirilganligi tasdiqlovchi muhokama bosqichi kiritilgan;

trening mashg'ulotlarda ishtirokchilarning faolligini ta'minlash va natijaviylikni ta'minlash uchun individual vaqt me'yori ajratilgan:

mashg'ulot mashqlari xususiyatidan kelib chiqib, ishtirokchilarni zarur ko'nikmalarni egallashlari uchun uyga vazifalar bandi kiritilgan.

Ushbu mezonlar va psixokorreksiya mashg'ulotlari uchun trening mashg'ulotlari bosqichlari va vaqt me'yori quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval). Jadvalda treningdagi ishtirokchilarning suitsidal xulq alomatlarini bartaraf etish va ularda konstruktiv xulq-atvor shakllarini tarkib toptirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tuzilmasi aks etgan.

1-jadval. Psixologik-korreksiya dasturidagi mashg'ulot tuzilmasi, vaqt me'yori va kutilayotgan natijalari

Psixologik korreksiya treninglarinig asosiy yo'nalishi	Trening mashg'ulotlarining tarkibiy tuzilmasidagi mashqlar	Ajratilgan vaqt me'yori	Kutilayotgan natija
Sotsial munosabatlar sharoitida o'zini namoyon etish	1-mashq. "Tanishtiruv"; 2-mashq. "O'z-o'zini anglash, o'ziga qabul qilish"	3 soat 30 daqiqa	"Men-konsepsiyasini" o'rganish va boshqalarga o'zlari to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish, o'z psixik holatini boshqara olishga o'rgatish bo'yicha tajriba va ko'nikmalarini shakllantirish
Hayotiy maqsad qo'yish va faoliyatni tartibga solish	1-mashq. "Maqsadlarni tushunish" 2-mashq. "Uch istak" 3-mashq. "Mening qalbim fasllari" 4-mashq. "Qashshoqlik, boylik va Xudo" 5-mashq. "Ozod!" 6-mashq. "E'lon" 7-mashq. "Sehrli do'kon" 8-mashq. "Muammolarni maqsadga aylantirish" 9-mashq. "Kelajak haqidagi tush" 10-mashq. "Kelajak xaritasi" 11-mashq. "Mening kelajagimning muhim bosqichlari" 12-mashq. "Kutish" 13-mashq. "Kamalak" 14-mashq. "O'q" 15-mashq. "Maqsad sari yo'l" 16-mashq. "Hayotning ma'nosi" 17-mashq. "O'sib borayotgan maqsadlar" 18-mashq. "Maqsadlarni baholash" 19-mashq. "Noto'g'ri maqsadlar" 20-mashq. "Maqsadlarni tenglashtirish"	18 soat 25 daqiqa	Ishtirokchilarga ijobiy va real maqsadlarni shakllantirish va ularni ochiq shaklda etkazish, boshqalarni o'z maqsadlariga erishishga jalb qilish. Keyinchalik, ishtirokchilar o'zlarining maqsadlarini boshqalarning maqsadlari va istaklariga moslashtirish ko'nikmalari shakllantiriladi
Shaxs o'tmishining psixologik tahlili (Qayta yozilgan tarjimai hol)	1-mashq. "Qayta yozilgan tarjimai hol" 2-mashq. "Biografiya loyixasi" 3-mashq. "Hayotning baxtli lahzalari" 4-mashq. "Muvaffaqiyatlarim va muvaffaqiyatsizliklarim" 5-mashq. "Optimistik ishlash"	6 soat 30 daqiqa	Ishtirokchilardagi o'tmishdagi vaoqea-hodisalarning bugungi hayotilagi ta'sir o'rnini tahlil qilish asosida mavjud asoratlarni bartaraf etish va o'tmishning yangi timsollar orqali hamda konstruktiv mazmunda qayta shakllantirish ko'nikmalarini tarkib toptirish.
Refreyming (Bir yomonlikda bir yaxshilik)	1-mashq. "Bir yomonlikda bir yaxshilik" 2-mashq. "Eng yaxshi alternativani topish"	3 soat 30 daqiqa	Salbiy emotsional holtalarning ijobiy tomonlarini, yuz bergan yoki kutilgan noxush hodisada biz ijobiy narsalarni majoziy ravishda tasavvur qilib, unga o'rganib qolgan ijobiy daqiqalarni shakllantirish ko'nikmalariga ega bo'lish
Mavjudlik fenomeni (maqto'vni qabul qilish)	1-mashq. "Maqto'vni qabul qilish. Iltifotdan zavqlanish imkoniyati"	1 soat 15 daqiqa	Trening ishtirokchilari nafaqat maqto'vga munosib ravishda javob berishni, tajovuzkorlik bilan emas, balki maqto'vdan xursandchilik va zavqlanishni o'rgatadi.



O'z-o'zini mustahkamlash	1-mashq. "Siz o'zingizni maqtamasangiz - hech kim maqtamaydi"	2 soat 30 daqiqa	Ishtirokchilarda o'ziga mos keladigan qo'shimcha qismlarni mustaqil ravishda tanlay olish va o'zini o'zi mustahkamlash mahoratiga ega bo'lishi malakalariga ega bo'ladi.
Faoliyatdan qoniqish	1-mashq. "Menga yoqadi" 2-mashq. "Juftlikdagi intervyu" 3-mashq. "Mening sevimli ishim" 4-mashq. "Real va istalgan narsalarning muvozanati" 5-mashq. "Men o'rganishni xohlayman" 6-mashq. "Yoqimsiz ish" 7-mashq. "Nima menga zavq bag'ishlaydi?"	14 soat 30 daqiqa	Ishtirokchilar yoqimli his-tuyg'ularga e'tibor berib, zavq olish uchun ushbu tadbirlardan ongli va maqsadli foydalanishga o'rgatiladi.
Insonlardan zavqlanish	1-mashq. "Mening sevganlarim" 2-mashq. "Sevgan insonim bilan suhbat" 3-mashq. "Bir yaxshilikda bir yomonlik"	6 soat 30 daqiqa	Ishtirokchilarda atrofda odamlarning ijobiy tomonlarini ko'rishni, ularga bu haqda aytib berishni, boshqalarga hamdardlikni va o'ziga nisbatan hamdardlikni uyg'otishga o'rgatadi
Jami		53 soat	

XULOSA VATAKLIFLAR

Dasturdagi mashg'ulotlar mazmuni va uni tashkil etuvchi mashqlar, vaqt me'yori va kutilayotgan natijalar sharhi keltirilgan. Psixokorreksiya dasturida 8 ta qadamdan iborat 40 ta mashq yoki 40 ta mashg'ulotdan iborat. Mashg'ulotlarning o'rtacha davomiyligi o'rtacha 1 soat 30 daqiqani tashkil etmoqda. Jami mashg'ulotlarning kechish davomiyligi 14 kunni tashkil etadi. Ichki ishlar organlari xodimlarining suitsidal xulq-atvori psixokorreksiyasi uchun mo'ljallangan dasturning tatbiq etishda trening guruhi ishtirokchilariga qullaylik va kutilgan natijalarga erishish uchun trening uchun mo'ljallangan maxsus xonalarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Trening guruhi ishtirokchilar soni esa trening 12-15 nafardan iborat qilib belgilandi.

Trening guruhlari uchun qulaylik yaratish maqsadida quyidagi ko'rsatkichlar inobatga olindi:

- har bir ishtirokchining qulay ishtirok etishi uchun kursilar;
- doska (stend, plakatlar va flipchart);
- rangli qalamlar, markerlar, flomasterlri;
- treningda foydalanishga mo'ljallangan qog'ozlar (A3 va A4 formatdagi qog'ozlar);
- kompyuter va noutbuk, printer;
- qo'shimach jozlar va stol jihozlari.

Psixokorreksiya trening dasturidan tashqari Ichki ishlar organlari xodimlarining suitsidal xulq-atvoriga moyillik darajalarini pasaytirish hamda profilaktika xizmati (prevensiya) tashkil etishda foydalanish istiqboli uchun samardorlik darajasini aniqlashga e'tibor qaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning ma'suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5005-son Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi Ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 3216-sonli Qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi "Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2883-sonli Qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 20 yanvardagi "Ichki ishlar organlari xalqchil professional tuzulmaga aylantirish va aholi bilan yanada hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"gi PQ-10-sonli Qarori
6. Kasperovich Yu.G. Psixologicheskoe obespechenie profilaktiki suitsidov sredi sotrudnikov organov vnutrennix del. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kandidata psixologicheskix nauk. Moskva -2004. C 5
7. Predotvraozhenie samoubiystv. globalny imperativ.Vsemirnaya organizatsiya zdnavooxraneniya evropeyskoe regionalnoe byuro. 2014 g.C.7. El. adres: contact@euro.who.int. Veb-sayt: www.euro.who.int.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.